

## MODERNIZATION DIRECTIONS OF ARMORED VEHICLES

Turayev Botir Fatullayevich,  
Teacher of the Department of Technical  
Support of the Institute of Ground Forces

### Abstract

This article provides information about changes in the company of armored vehicles, their features and disadvantages, directions of modernization of armored vehicles.

**Keywords:** Armored vehicles, machinery, company, modernization, complex, maintenance, repair, process.

### Introduction

#### ZIRHLI TEXNIKALARINING MODERNIZATSIYA QILISH YO'NALISHLARI

Turayev Botir Fatullayevich,  
Quriqlikdagi qo'shinlar instituti texnik ta'minot kafedrası o'qituvchisi

### Annotatsiya

Ushbu maqolada zirhli texnikalari kompanovkasining o'zgarishi, ularning o'ziga xosligi va kamchiliklari, zirhli texnikalarni modernizatsiya qilish yo'nalishlari to'g'risida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** zirhli, texnika, kompanovka, modernizatsiya, majmua, texnik xizmat ko'rsatish, ta'mirlash, jarayon.

### Аннотация

В данной статье представлена информация об изменениях в роте бронетехники, их особенностях и недостатках, направлениях модернизации бронетехники.

**Ключевые слова:** бронетехника, техника, компания, модернизация, комплекс, техническое обслуживание, ремонт, процесс.

Zamonaviy harbiy mojarolar shuni ko'rsatmoqdoki, harbiy harakatlar asosan kichkina, alohida xududlarda olib borilishi, ularning tezkorligi, har xil turdagi qurollarning qo'llanilishi bilan ajralib turadi.

Olib borilayotgan harbiy harakatlar teatridan qa'tiy nazar g'alabani qo'lga kiritish dushmanni yakson etish, xududlarni tez egallash, tinchlikni ta'minlashdan iborat.

Ushbu vazifalarni bajarish harbiy harakatlarda zirhli texnikalarni qo'llash alohida ahamiyatga ega. Ko'rsatilgan xududlarga qurol-aslaha va o'q-dorilarni tez, talofatsiz, yetkazish va vazifalarni bajarish zirhli texnikalarni zimasi yuklatilgan.

Zirhli texnikalarni qo'llash shularni ko'rsatmoqdaki qaysi sharoitdan qa'tiy nazar qurol va texnikaning himoyalanganligi, harakatchanligi, asosiy va yordamchi qurol-aslaha majmuasining talabga javob berishi, avtomatlashtirilgan qo'shinlarni boshqarish tizimga egaligiga bog'liqdir.

Yuqoridagi ko'ratgichlarni tahlil qilgan holda zamonaviy zirhli texnikalarni yangilarini yaratish yoki borlarini modernizatsiya qilishni talab qiladi.

Modernizatsiya deganda nimani tushunamiz?

Modernizatsiya bu eskirgan, davr talabiga javob bermaydigan qurol va texnikani tuzilishini, materialini yoki ishlab chiqarish texnologiyasi ko'rsatgichlarini bir necha barobar ko'tarish va qo'llash ishlatish yangilash maqsadiga qaratilgan ishlar majmuasidir. Harbiy harakatlarda barcha turdagi qurollarning ishlatilishi aviatsiya, raketa va artilleriya majmualari, jangovar vertoletlar va zirhli texnikalarning qo'llanilishi, yangi texnikani yaratish bilan bo'lgan iqtisodiy va texnologik qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Modernizatsiya qilish mashinaning hamma asosiy qismiga taalluqli.

Shunday ekan Sizlar bilan tank umumiy kompanovkasini modernizatsiya qilishni ko'rib chiqamiz va uning istiqbolda o'zgarishini tahlil qilib chiqamiz.

Texnika kompanovkasi – bu qurol-aslaha majmuasi, ekipaj, kuchlanish-transmissiya qurilmasi, zirhli va maxsus elementlari, tankning tizimlari va yordamchi qurilmalarini funksiyaviy sharoitlashtirilgan joylashishidir.

Zirhlangan jangovar mashinalarning kompanovkasi ikki turga bo'linadi:

- umumiy kompanovka;
- qisman kompanovka.

Umumiy kompanovka vazifasi berilgan vazn va hajimlardan kelib chiqib mashinaning jangovar xususiyatlarining yuqori ko'rsatgichlariga erishishi hisoblanadi.

Qisman kompanovka – bu mashina asosiy kompanovka qismlarining alohida elementlari kursatgichlarini o'zgartirish.

### **Umumiy kompanovka vazifalarini yechish yo'llari:**

mashina ichki qismining bo'sh qolmasligi, dvigateldan oldinadigan kuchni qisqa yo'l bilan yurish qismiga uzatish;

o'lchamlarning ratsional nisbati va kopusning optimal shakli;

ekipaj a'zolari sonini qisqartirish;

ixcham va qisqa xajimdagi qurollarni, kuch qurilmasini, agregatlarni, asboblarni va apparaturalarni tanlab olish;

zich kompanovka;

ayrim qism va bo'laklarni zirhlangan joydan tashqi tomonda joylashtirish;  
yengil metalli va polimer materiallardan foydalanish.

### **Kompanovka qo'yiladigan talablar va ularni yechish yo'llari:**

qudratli qurollarni o'rnatish va ulardan unumli ishlatilishini ta'minlash;  
mashinaning talofat vositalaridan ishonchli himoya;  
mashinaning yuqori harakatchanligi;  
yuqori ergonomik ko'rsatgichlari.

Yuqoridagi talablardan tashqari mashina konstruksiyasini ishlab chiqarish texnologiyasi, agregat uzellarining unifikatsiyasi, standartlashtirilganligi va ishlab chiqarishning arzonligi, uzoq vaqt davomida jangovar ishlatish, ta'mirlashning va texnik xizmat ko'rsatish kam ish talab qilishi va dala sharoitida qo'shin ta'mirlash vositalari yordamida tiklanishi.

### **Texnikaning umumiy kompanovkasi** toifalari uch turga bo'linadi:

qurollarni o'rnatilishi tamoiliga asosan – aylanadigan minorada, minorasiz kompanovka shaklida;

ekipajlarni joylashtirish sharoitiga ko'ra – ekipajni korpus va minorada, ekipajning korpusda, va ekipajning minorada joylashish kompanovkasiga;

dvigatel va transmissiyaning joylashuviga ko'ra – dvigatel mashina orqa va transmissiyaning oldinda, dvigatel va transmissiyaning oldinda va orqada joylashuviga bo'linadi.

### **Istiqbolli zirhli texnikalarni kompanovkasi va ularning kamchiliklari.**

Bugungi kunda zamonaviy tanklarning kamchiliklari kopusining aylanasiga snaryaddan himoya zirhlanishini ta'minlab berishning iloji yo'qligi, qudratli katta qurolni o'rnatilishi mashina konstruksiyasining murakkablashishiga va og'irligini oshirishga olib keladi.

Bu muammolarni yechish istiqbolli tanklarda pushka qurollari o'rniga raketa qurollar majmuasini o'rnatish bilan muammoni hal qilishning qiyinligi, ekipajni qobiq ichiga joylashtirib asosiy qurolni alohida chiqarishni talab qiladi.

Mashina kompanovkasini yana bir o'zgartirish yo'nalishi uni ikki bir-biriga bog'langan qismlarga bo'lish taklif qilinmoqda, birinchi ko'rinish oldingi qismda ko'chlanish bo'limi, masofadan boqariladigan ko'rish asboblari, yordamchi va qo'shimcha qurollar o'rnatilsa orqa qismida asosiy tank quroli, o'qlash mexanizmini joylashtirishi, ikkinchi varianti jangovar bo'lim oldinda harakatga keltiruvchi qism orqaga joylashtirishni taklif qilinmoqda.

Istiqbolli zirhli tank qurol texnikalarni har xil turlari bo'lib, ularni to'g'ri kelgan qurollar va tizimlar bilan butlangan holda kompanovkasini yaxshilashga qaratirish qiyin masala hosoblaniladi. Shuning uchun har bir texnika kompanovkasi bajariladigan vazifalardan kelib chiqqan holda yaratilishi talab qilinadi.

Har qaysi universal, qudratli qurollangan texnika qo'yilgan fazifani samarali bajarishi, texnikalarni bosqaruvchilar mahorati va bo'linmalar boshqarishining samarali olib borilishiga bog'liqdir.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, zamonaviy zirhli tank qurol texnikalarni jangovar shayligini yetarli darajada ushlab turish ularning kompanovkasiga doimiy ravishda o'zgartirishlar kiritishga, qurol va texnikalarni zamon va fan taraqqiyotidan kelib chiqib modernizatsiya qilishni talab qiladi.

Zirhli tank qurol texnikalarni modernizatsiya qilish, ularning bir tomonlama kompanovkasini o'zgartirish doirasidan chiqqanligini ko'rsatmoqda va bu masalaning yechimi harbiy sohaning hamma yo'nalishlarida olib borilishi shart.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Rossiyada bo'lib o'tgan "Rossiyada avtomobil va traktorsozligi: takomillashtirish ustuvorligi va kadrlarni tayyorlash" to'g'risidagi 77-xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari.
2. ЦАМТО (dunyodagi qurol savdosini tahlil qilish markazi) ochiq sahifasining "Joriy tahliliy materiallar" bo'limidagi nashri.
3. «Мировая торговля оружием» 2-sonli jurnali.
4. <http://www.modernarmy.ru/article/276/osnovnie-napravlenia-razvitia-boevih-kolesnih-mashin> © Portal "Современная армия";
5. <http://eizvestia.com/armiya/full/545-bronirovannaya-mashina-m-atv-ssha>;
6. <http://bmpd.livejournal.com/1506191.html>;
7. <http://www.autocentre.ua/news/automobiles/bronevtomobil-ovod-iz-zhitomira-sobiraetsya-na-gruzovike-za-neskolko-chasov-gb-67280.html>.